



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

O'ZBEK TILI TARAQQIYOTI VA XALQARO HAMKORLIK MASALALARI

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari



2023-yil
19-oktabr



Ma'lumki, *ahd qilmoq* frazeologik ma'nosida qat'iyat ma'nosi bor. Frazemalar bizga qadim madaniyatdan darak berar ekan, biz ushbu frazeologik ma'noning shakllanishini quyidagicha tahlil qildik. Avvallari qandaydir og'irroq yumushga kirishish, yo'lga chiqish uchun bel bog'langan. Bu holat asboblarni belga bog'lab olish, pul yoki uzoq yo'l uchun kerakli narsalarni belga bog'lab olish, belni qattiq ushlab turish, kiyimlarni (oldi ochiq chopon, yaktaklarni) ishga moslash olish kabi maqsadlarda amalga oshirilgan. Yoki polvonlarimiz ham kurashga tushishdan avval belini bog'lab olgan. Mana shu jarayon, bel bog'ladimi, demak, aniq shu ishni bajaradi; bel bog'ladimi, demak, aniq yo'lga chiqadi; bel bog'ladimi, demak, qarori qat'iy, aniq kurashadi degan assotsiatsiyalar natijasida frazeologik ma'no vujudga kelgan.

Demak, frazemalar orqali ham qat'iyat konsepti voqelanar ekan. Bunda o'zbek xalqining aytilgan gapida qat'iy turishi (*bir so'zi ikkita bo'lmadi; bir so'zini ikkita qilmaslik; gapida turmoq; so'zida turmoq; lafzida turmoq; gapini ikkita qilmaslik; bitta so'zini ikkita qilmaslik; degani degan, aytgani aytgan; so'zida qattiq turmoq; so'z bermog; so'zini ikki qilmaslik; turgan gap; gapini ustidan chiqmoq; gapni uddasidan chiqmoq*); qiyin sharoitlarda ham fikridan qaytmaslik kerakligi (*ikki oyog'ini tirab olmoq; ikki oyog'ini bir etikka tiqmoq*); aytilgan fikrdan hech qachon qaytmaslik (*ikki dunyoda ham*); so'zdan qaytish o'zlikdan qaytishdir (*otimni boshqa qo'yaman*) degan hayotiy falsafalari o'z aksini topgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jumayeva Z.Sh. Frazeologik birliklarning semantik va lingvokulturologik tadqiqi. Filol.fan.falsafa dok (PhD)dis. ...avtoref. – Jizzax. 2021.
2. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980.
3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдди. 1-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – 680 б.
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдди. 2-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – 672 б.
5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдди. 3-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007. – 688 б.
6. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдди. 4-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – 608 б.
7. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдди. 5-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – 592 б.
8. Hakimova M. The concept of "youth" in the uzbek language and its linguistic and cultural features. Web of scientist: International scientific research Journal. https://scholar.google.ru/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=pLOh5x8AAAAJ&citation_for_view=pLOh5x8AAAAJ:3fE2CSJlrI8C

JOZEF BUDENSNING “XIVA TATARCHASI” MAQOLASI XUSUSIDA REGARDING THE ARTICLE “KHIVAI TATÁRSÁG” BY BUDENZ JÓZSEF

Alimardanov Elyor*

Annotatsiya. O'zbek tilining o'g'uz lahjasi tarkibiga kiruvchi Xorazm shevalari o'zbek dialektologiyasida boshqalariga nisbatan ko'p o'rganilgan shevalardan biri hisoblanadi. Xorazm shevalarini o'rganish XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlangan bo'lib, ushbu davr Xorazm shevalari haqida ma'lumotlar xorijiy olimlar tomonidan berilgan. Maqolada Xorazm

* Folklorshunoslik va dialektologiya kafedrasida tayanch doktoranti. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

shevalarini o'rganishdagi tarixiy manba – J.Budensning “Xiva tatarchasi” maqolasi haqida ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: tatarcha, turk tili, o'zbek tili, fonetika, unli, undosh.

Abstract. *Khorezm dialects, which are part of the Oghuz dialect of the Uzbek language, are one of the most studied dialects in Uzbek dialectology. The study of Khorezm dialects began in the second half of the 19th century, and information about the Khorezm dialects of this period was given by foreign scientists. The article provides information about the historical source for the study of Khorezm dialects - the article “Khivai tatárság” by Budenz József.*

Key words: Tatar, Turkish, Uzbek, phonetics, vowels, consonants.

Xorazm shevalari haqidagi ilk ma'lumotni 1865-yilda nemis tilshunos olimi J.Budens o'zining “Xiva tatarchasi (turkchasi)” [Budenz, 1865: 269-331] nomli maqolasida beradi. Aytish joizki, “Xiva tatarchasi (turkchasi)” ishi hali xorazmshunos-dialektologlar tomonidan o'rganishdan chetda qolayotgan tadqiqotlardan bo'lib, uzoq vaqtlardan beri Xorazm shevalari haqida ma'lumot beruvchi dastlabki manba sifatida A.Vamberining 1867-yilda e'lon qilingan “Chig'atoy tili darsligi” keltiriladi [Vámbery, 1867]. Ammo J.Budens Vamberidan avval (2 yil oldin) mazkur maqolasini ilm ahliga taqdim etadi. Shunga ko'ra, Xorazm shevalari haqida ma'lumot beruvchi dastlabki manba sifatida J.Budensning mazkur maqolasini keltirish mumkin.

Maqola Vengriya Fanlar Akademiyasining Tilshunoslik jurnalida venger tilida yozilgan bo'lib, qariyb 62 sahifani tashkil etadi. Maqola kirish, matn va sheva haqida ma'lumot beruvchi nazariy qismlardan iborat. Nazariy qismning o'zi yana ikkiga bo'linadi:

1. Fonetik kuzatishlar (Hangtani észrevételek).
2. Grammatik shakllar (Nyelvtani alakok).

J.Budens ushbu ishida “tatarcha” terminini qo'llab, umumiy turk tili, ya'ni Xiva turkchasi turk tili nazarda tutilgan. Tarix fanlari doktori G'.Boboyorovning og'zaki bergan ma'lumotiga ko'ra, XIX asr G'arb manbalarida keng bo'lmasa ham, Sharqiy Yevropa va O'rta Osiyo turklariga nisbatan “turk” termini bilan birgalikda “tatar” termini ham qo'llanilgan. Shuningdek, turk, tatar terminlari bilan maqolada parallel ravishda o'zbek atamasi ham qo'llaniladi.

Aytish joizki, mazkur tadqiqotni amalga oshirish jarayonida Budens biror marta Xorazmda bo'lmagan va xalq ichida yurib, matnlar yozib olmagan, shunga ko'ra, ishni umumiy ma'lumot beruvchi axborot sifatida talqin etish mumkin. Olim shevaga oid materiallarni bayon qilishda unga yaqin o'rtog'i A.Vamberi Yevropaga o'zi bilan olib borgan shogirdi Mulla Is'hoqning xizmati katta ekanligini alohida ta'kidlaydi. Manba va materiallarni uning og'zidan yozib olganligini qayd etadi va namunadagi matnlarni 3 qismga ajratadi: 1. Ba'zi tatar (o'zbek – A.E.) maqollari va topishmoqlari (naql, ojun hikâjet); 2. Ertak va hikoyatlar (hikâjetler); 3. Venger shoiri Yanosh Aranning “Budaning o'limi” nomli balladasining oltinchi qismi “Mo'jizaviy ohu hikoyati (Ežebli âhunîñ hikâjeti)”ning o'zbek tiliga (Xiva shevasiga) qilingan erkin tarjimasidir.

Maqol va topishmoq matnlari Mulla Is'hoqning tilidan yozib olingan 43 ta maqollar va 6 ta topishmoqlardan iboratdir. Ertak va hikoyatlar matnlari jami 13 ta hikoyat keltirilgan bo'lib, muallifning ta'kidlashicha, 1-6-hikoyalar fors tilidan, 7-9-hikoyalar venger tilidan o'zbek tiliga erkin tarjima qilingan, 10-11-hikoyalar Mulla Is'hoq tilidan yozib olingan hajm jihatdan boshqalariga qaraganda ko'proq bo'lgan ertaklar, 12-hikoya usmonli turk tilida yozilgan “Qirq vazir” kitobidan erkin tarjima qilingan parcha, 13-hikoya esa, usmonli turkchadagi “To'tinoma”dan erkin tarjima qilingan parchalardir. “Mo'jizaviy ohu hikoyati” balladasining erkin tarjimasini qariyb 181 misrani tashkil etadi. Aytish joizki, ertak-hikoyalarning va “Budaning o'limi” balladasining tarjima qilinishi Mulla Is'hoq tomonidan amalga oshirilgan.

Muallif maqola dastlabida Mulla Is'hoqdan olingan matnlarni imkon darajada fonetik jihatdan to'g'ri yozib olishga harakat qilgani va “Xivada mashhur bo'lgan o'zbek tilidan namuna sifatida turk-tatar tillarini o'rganishga qiziquvchilar uchun” maqolani baham ko'rishini alohida qayd etadi.

J.Budens Xiva turkchasining fonetika qismida unli va undoshlarning miqdorini belgilaydi, ilk bor o'zbek tilida birlamchi cho'ziq unlilarning mavjud ekanligini [Tekin, 1995: 50] G'arb ilm olamiga ma'lum qiladi va namunalar keltiradi. Shuningdek, unli va undoshlarda uchraydigan tovush almashishlari haqida to'xtalib o'tadi.

Olim Xiva shevasida 9 ta unlini qayd etadi: unlilar: **a, e** (o'zbek shevalaridagi **ä** yoki **ə**), **i, ĩ, o, ö, u, ü, é** (o'zbek shevalaridagi **e** yoki **ə**)*.

Budens fonemalarni taqdim etarkan, ularga alohida tavsif berib o'tirmaydi, ba'zi fonemalar, (xususan, cho'ziq unlilar) ularning ba'zi tovush almashishlari haqida qisman to'xtalib o'tadi. Lekin berilgan matnlardan fonemalar haqida fikr bildirish mumkin.

Budens Xiva shevasida 22 ta undosh tovushlarning mavjudligini quyidagi tartib asosida beradi: **q, ʁ, ɣ; k, g, j (y) ñ; č, ž, š; t, d, s, z, n; p, b, v, w, m; l, r***. Tartibga e'tibor berilsa, tovushlarning hosil bo'lish o'rniga ko'ra alohida tartiblab joylashtirilgan. Masalan, dastlab chuqur til orqa tovushlari: **q, ʁ, ɣ**; til orqa va til o'rta: **k, g, j (y) ñ**; Maqolada unlilardek undoshlarning har biriga ham alohida ma'lumotlar berilmaydi. Muallif tomonidan muhim deb hisoblangan jihatlarga yoritib beriladi. Lekin mazkur ma'lumotlar va keltirilgan matnlar asosida undosh fonemalar haqida fikr yuritish mumkin bo'ladi.

Xiva shevasida **f** undoshi yo'qligi qat'iy tarzda aytilib, arab-fors tillaridagi **f** tovushi esa, **p** ga o'tishi qayd qilinadi: *pajda, pélan, ʁaup, terep, musâpîr, perzend, pârsi*. Ammo mazkur tovush usmonli turkchasi borligi aytiladi.

J.Budens maqolada o'zbek-tatar tilida (Xorazm shevasida – A.E.) sof turkona so'zlarda cho'ziq unlilarning mavjudligini, ammo usmonli turkchada esa, unlilarning cho'ziqligi faqat arab-fors so'zlarida uchrashini alohida ta'kidlab *qân (qon), ât (ism)* kabi misollarni keltiradi. **ĩ** tovushining cho'ziq holda qo'llanishiga *sîpalamaq (erkalamoq), sîlamaq (hurmat qilmoq), čîy (shudring), qîšîq (qiyshiq), qîz yoki qîz; î* tovushi; **ô** tovushi *ôlar, bôr, tôn; ö* tovushi *bôri; û* *tûdî (toydi), bûmaq (boymaq), tûz; ü* *tûš* kabi so'zlarni namuna sifatida keltiradi. Shuningdek, muallif shevadagi ikkilamchi cho'ziqlikka ham misollar beradi va bu hodisani alohida cho'ziqlik sifatida olmasdan, birlamchi va ikkilamchi cho'ziqlikni umumiy ma'noda bitta cho'ziqlik sifatida qayd etadi.

Ishda olim diftonglashish hodisasi haqida ham bayon qiladi. **au** (usmonlicha *av*), *ʁaup* (*ar. خوف*, usmonlicha *ʁavf*) **ay** bilan bog'liq so'zlarning ko'pincha **au** diftongli holda talaffuz etilishini aytadi va yonida diftongsiz holdagi talaffuzini ham qayd etadi: *tau (tay, usmonlicha day) sau (say), atau (ataɣ, usmonlicha ada), jau (jay) auz (ayîz), âur (ayîr), bâur (bayîr)* kabi.

eü diftongi. Aytish joizki, Budens **e** unlisini o'zbek shevalaridagi **ä (ə)** unlisi o'rnida qo'llaydi va ushbu diftong **äü (əy)** talaffuzli diftongni ifodalaydi. Maqolada o'zbek shevalaridagi **e (e)** unlisi **é** belgisi bilan ifodalangan. Shu o'rinda ishdagi unlilarni tilning yotiq holatiga ko'ra, muallif tanlagan belgilari asosida quyidagicha joylashtirish mumkin.

Orqa qator unlilar

Old qator unlilar

a

E

ĩ

I

o

Ö

u

Ü

É

eü diftongi (usmonlicha *ev*) *seümek* (usm. *sevmek*), *deület* (usm. *devlet*), *geüher* (usm. *gevher*), *reüšen, neübet* (usm. *nevbet*); **ou** diftongi (**ov**) *qoumaq* (usm. *qovmaq*); **ie (iä)** diftongi *iemmek, iemček, iekmek, bieşik, iel, ienli, tieri, iesmek*.

* transkripsion belgilar manbadagi asl holicha berilmoqda..

* muallif undoshlar soniga h tovushini qo'shmaydi. Ammo namuna sifatida keltirilgan o'zbekcha matnlarda h tovushini qo'llaydi. Masalan, qaranı jusañ, aq bolmas, jaman her qîz jaxşı bolmas; uzak-ta bolsa hem jol jaxşı, jaman bolsa hem qîz jaxşı.

Budens ba'zi so'zlar talaffuzini usmonlicha bilan qiyoslashda davom etarkan, usmonlichadagi **e (ä)** shevadagi **i** ga to'g'ri kelishini aytadi: usmonlicha *beš, etmek, gelmek, vermek, jer, jel, jemek* – Xorazm shevasida *biš, itmek, kilmek, birmek, jir, jil, jimek* kabi.

Undosh tovushlar haqida so'z borganda Budens arab-fors tilidagi **f** tovushi shevada yo'qligini, o'zlashgan so'zlarda **p** holatda talaffuz qilinishini aytadi. *pajda, pélân, çaup, terep, musâpîr, perzend, pârsi*. Muallif **f** tovushini usmonli turklar talaffuz qilishini alohida ta'kidlab, sof turkiy so'zlardla ham ushbu tovush borligi, lekin juda kam qo'llanishini aytadi, ammo namuna keltirmaydi.

Maqolada turkiy tillardagi yoki o'zbek shevalaridagi jaranglilashish hodisasi haqida bir nechta so'z usmonli turkchadagi varianti bilan qiyoslanadi. Usmonlichadagi bir qancha jarangli so'zlar keltiriladi: *dil, day, doymaq, gelmek, gitmek, görmek, jedi, giderim, eder* kabi. Ammo usmonli turkchada ham jaranglilashish bir tekis emasligini quyidagi so'zlar orqali ifodalaydi: *tutmaq, tar, kürek, köpük, kesmek* kabi. Xorazm shevasida esa, jarangsizlashish ustunvor bo'lib, bu jarayon ham bir tekis emasligini aytib o'tadi va quyidagi so'zlarni misol tariqasida keltiradi: *til, tau, toymaq, kitmek, körmek, jiti, kitermen iter; gezmek, güzel* kabi.

Usmonli tilidagi so'z boshida keluvchi **v** tovushi shevada **b** shaklda saqlanganligini qayd etadi: *varmaq, vermek, var-dîr; barmaq, birmek, bar-dîr*. Olim ikki turkiy til o'zbek va usmonli tillarini yanada kengroq qiyoslash kerakligini aytib, o'ziga xos tovush almashishini keltiradi: o'zbek. *köjnek*, usmon. *gömlék*.

Budens turkiy tillardagi singarmonizm hodisasi haqida alohida to'xtalib, yoqut, usmonli va o'zbek tillarida yaxshi saqlanganligini qayd etadi, qo'shimchalarning unli tovushlar old-orqa qatorligiga ko'ra, variantlarini berib o'tadi: **nîñ – niñ, qa – ke, ya – ge, lar – ler, liq – lik, li – li**.

Singarmonizmning ikki turiyam mavjudligini qayd etib, ikkala holatda ham buzilishlar borligini aytadi. Undoshlar mosligi borasida ham namunalar keltiradi. Qo'shimchalarning variantlarini taqdim etadi: **-ya, -qa, -ge, -ke; -ji, -ji, -ci, -ci; -da, -de, -ta, -te; -dîn, -dîn, -tîn, -tîn; -di, -di, -ti, -ti; -dîr, -dir, -tîr, -tir**.

Assimilyatsiya. **n-l körgeller (körgenler), xatillar (xatînlar), küllükçi (künlükçi), jîlallî (jîlanlî); r-l weziller (wezirler); d-n mênnen (ménden), başîmnan (başîmdan), işînnen (işînden), annîn (andîn), zindânnén (zindândîn), n-m jamam-ma (jamanma), bilesem-mé (bilesen-mé)**.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Yozef Budensning "Xiva tatarchasi" maqolasi 1865-yilda Vengriya Fanlar akademiyasining "Tilshunoslik xabarları" jurnalida e'lon qilindi. Mazkur ish Xorazm shevalari haqida ma'lumot beruvchi dastlabki manba sifatida G.Vamberining "Chig'atoy tili darsligi"dan ikki yil avval ilm ahliga ma'lum qilindi. Shunga ko'ra, J.Budensning mazkur maqolasi Xorazm shevalari haqida ma'lumot beruvchi ilk manba sifatida qaralmog'i lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Budenz József. Khivai tatárság // Nyelvtudományi közlemények. A Magiak Tudományos Akadémia Nyelvtudományi bizottsága. Negyedik kötet. –Pesten: 1865.
2. Vámbéry A. Cagataische Sprachstudien (ib. 1867) [Chagatai Language Studies] (*Ĉagataische sprachstudien, enthaltend grammatikalischen umriss, chrestomathie, und wörterbuch der čagataischen sprache;*)
3. T.Tekin. Türk dillerinde birincil uzun ünlüler. –Ankara, 1995.

<i>Mahkamova D.</i>	Terminologik modernizatsiyada shakliy omilning voqelanishi	131
<i>Mamadjanova M.</i>	Miqdor maydonining o'zbek tilshunosligida o'rganilishi	134
<i>Davronova Z.</i>	Taxalluslarining o'ziga xos talqini va tahlili	138
<i>Ismailova H.</i>	Semantic and structural peculiarities of euphemisms	142
<i>Toshpo'latova N.</i>	O'zbek tilining frazeologik lug'atidagi emotsional-eksprissiv munosabat ifoda etuvchi frazemalar tahlili	145
<i>Qurbonova G.</i>	Metaforik ifodalarda astronimlar	150
<i>Xasanova M.</i>	Bilingvizmning shaxsning intellektual rivojlanishiga ta'sirini baholash	155
<i>Sattarova N.</i>	Asaka tumani godonimlari tarkibida etnonimlarning o'rni	161
<i>Jamoliddinova I.</i>	O'zbek tilida "qat'iyat" konseptini ifodalovchi turg'un konstruksiyalar	165
<i>Alimardanov E.</i>	Jozef budensning "xiva tatarchasi" maqolasi xususida	168
<i>Norqulov F.</i>	O'zbek tili funksional uslub tasniflari va ularning xususiyatlari	172
<i>Xudoyberdiyeva G.</i>	Terminlar va umumleksik birliklarda polifunksionallik hodisasining o'rganilishi tahlili	176
<i>Quraqova Sh.</i>	Piktogrammalarining qo'llanilish doirasi (yo'nalish, belgilash va yo'l belgilari misolida)	178
<i>Qodirov U.</i>	Atoqli shevashunos olim	182
<i>Ro'ziyev E.</i>	Siyosiy diskursning lingvistik maqomi	186
<i>Turdialiyev A.</i>	Denov qipchoq shevalarining ba'zi xususiyatlari	191
<i>Kenjayev Z.</i>	O'zbek tili oronimlarining hosil bo'lishi	196
<i>Журабоева М.</i>	Роль узбекского языка в мире: анализ и перспективы	200
<i>Tashmatova N.</i>	"Gulshan ul-asror" asari leksikasida yasama so'zlar tahlili	203
<i>Yodgorov J.</i>	Badiiy matnda undov	207
<i>Qahharova S.</i>	Harakat usulini ifodalovchi fe'llarda troponim-gipernim munosabati	210
<i>Mirzayeva G.</i>	Neyrolingvistik tadqiqotlar xususida	213
<i>Muzaffarova Z.</i>	Lingvistik birliklarning she'riyatda qo'llanilishi. (Erkin Vohidov ijodi misolida)	215
<i>Imomov E.</i>	Issues of stabilization of basic lexical structure of profession	219
<i>Bekmurodov T.</i>	Jadidlar davrida matbuot va nashriyot terminlari	221
<i>Musurmonqulov A.</i>	Graduonimik darajalanish sistemaviy munosabatlarning bir ko'rinishi sifatida	224
<i>Malikova I.</i>	Til birliklarining paradigmatic munosabati	227
<i>Qudratova S.</i>	sotsiolingvistik tadqiqotlarning shakllanishi	230
<i>Mamirova X.</i>	Perseptiv lug'at va o'zbek bolalari ongida perseptiv lug'at shakllanishining psixolingvistik omillari	234
<i>Yokubbayeva U.</i>	"Yangi o'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" asarida qo'llangan frazeologik birliklarning funksional-semantik tahlili xususida	237
<i>Allaberganova N.</i>	O'zbek tilidagi reklama matnlarida takrorlarning lingvokognitiv xususiyati	243
<i>Xojiyev Y.</i>	O'zbek tilida milliy xarakterning kichraytirish-erkalash affikslari orqali ifodalanishi	245
<i>Isaqova M.</i>	Lotin tilidan o'zlashgan xalqaro huquqiy terminlar	248
<i>Murotov H.</i>	Radio reklama matnlarida kommunikativ strategiya va taktikaning namoyon bo'lishi	251
<i>Abdujalilov M.</i>	O'xshatishlarning o'zbek va rus tilshunosligida o'rganilishi	256